

MUALLIF LISONIY SHAXSINING VOQELANISHIDA SINTAKTIK BIRLIKLARNING O'RNI

Marhabo Umurzoqova,

filologiya fanlari doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

umurzakovamarkhabo@gmail.com

Annotatsiya. Muallif lisoniy shaxsini belgilashda ekspressivlikni ta'minlovchi sintaktik vositalardan foydalanish mahoratini tadqiq qilish muhim. Gapning sintaktik qurilishi, jummalarning o'rinishuvi so'zlovchining maqsadiga mos ravishda tanlanadi. Maqolada muallif lisoniy shaxsining voqelanishida ayrim sintaktik vositalarning o'rni xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: lisoniy shaxs, sintaktik takror, inversiya, sintaktik qolip, temperament, ijtimoiy omil.

Аннотация. Важно изучить умение использовать синтаксические средства, обеспечивающие выразительность, при определении языковой индивидуальности автора. Синтаксическая конструкция предложения, расстановка предложений выбираются в соответствии с целью говорящего. В статье рассматривается роль отдельных синтаксических средств в реализации языковой индивидуальности автора.

Ключевые слова: языковая личность, синтаксическое повторение, инверсия, синтаксическая модель, темперамент, социальный фактор.

Abstract: It is important to study the ability to use syntactic means that ensure expressiveness when determining the author's linguistic individuality. The syntactic construction of a sentence and the arrangement of sentences are selected in accordance with the speaker's purpose. This article examines the role of individual syntactic means in realizing the author's linguistic individuality.

Keywords: linguistic personality, syntactic repetition, inversion, syntactic model, temperament, social factor.

Kirish. Til millatni birlashtirish va ayni paytda uni bir qator ijtimoiy guruhlarga ajratish qudratiga ega bo'lgan xilqatdir. Tilni bilish uning barcha imkoniyatlaridan foydalanish layoqati til egalari uchun bir xil emas. Tildan foydalanuvchi shaxs uni o'z maqsadi, kommunikativ taktikasiga moslaydi. Yillar davomida shakllangan qoliplarni, me'yorlarni buzadi, shu tariqa bir tilning turlicha tovlanishlari yuzaga keladi, bu holat ijodkorlarning asarlarida namoyon bo'ladi. Bir til egasi bo'lgan yozuvchilarning turli uslub va jilvalarda badiiy diskursni hosil qilishi maqsad va niyatlarning xilma-xilligi, shuningdek, boshqa til qoliplarining o'zlashtirilishi, tillarning o'zaro ta'siri natijasida vujudga kelishi mumkin. "Lisoniy shaxs olamning lingvistik manzarasini individual tarzda namoyon qiladi. Uning eng yorqin namunasi dunyoning obyektiv tasvirini ifodalaydigan, muallifning milliy, ijtimoiy, tarixiy omillarga asoslangan, o'z dunyoqarashi va falsafiy pozitsiyalarini namoyon qiladigan asari hisoblanadi. Olamning lisoniy manzarasini berishda yozuvchi umumiy tushunchalarni o'z dunyoqarashi asosida qabul qiladi, tabiiyki uni aks ettirish uchun badiiy tasvir vositalari va usullarini shunga moslab tanlaydi" [1;8]. Muallif lisoniy shaxsining o'ziga xosligini belgilashda so'z qo'llash bilan bog'liq jihatlargagina e'tibor qaratish yetarli emas. Rus tilshunosligida lisoniy shaxsning shakllanishida sintaktik birliklarning o'rni masalasiga ham e'tibor qaratilgan. O.V.Shatalova lisoniy shaxsning sintaktik xususiyatlariga e'tibor qaratar ekan, badiiy

asardagi sintaktik birliklarning muayyan matn sharoitlarida imkoniyati yuqori bo'lishini, bu adabiy asarning badiiy va estetik asosiga samarali ta'sir qilishini, matnni strukturaviy jihatdan tartibga solishini ta'kidlaydi [4;14]. Tadqiqotchi sintaktik qurilmalarning funksionalligini baholashda zamonaviy tilshunoslik talablariga mos keladigan yondahuv sifatida integral yondashuvni ma'qul ko'radi va bu yondashuv quyidagi vazifalarni: "ona tilida so'zlashuvchilarning lingvistik kompetensiyasini tavsiflovchi tarkibiy elementlarni aniqlash; gapning kommunikativ-funksional turi va nutqda ma'lum bir bo'lakni aktualashtirish natijasida qo'yilgan maqsad o'rtasidagi qonuniyatni aniqlash imkonini beradi", – deb hisoblaydi.[4;17].

Adabiyotlar sharhi. Tilshunoslikda muayyan yozuvchining uslubi, tildan foydalanish mahorati tadqiqiga bag'ishlangan ishlar talaygina. Ko'p hollarda sintaktik vositalar tahlili lingvopoetik aspektda amalga oshirilgan bo'lib, tadqiqotchilar sintaktik vositalarning badiiy matn ta'sirchanligini ta'minlashdagi o'rni masalasiga e'tibor qaratganlar. Sintaktik birliklar badiiylikni ta'minlash bilan birga muallif lisoniy shaxsining voqelanishida, uni boshqa mualliflardan ajralib turishini ko'rsatuvchi vosita sifatida ham ahamiyatlidir. O'zbek tilshunosligida badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqini amalga oshirgan X.Yo'ldosheva badiiy asarda adib, ya'ni yozuvchi, shoir, dramaturg adresant, ya'ni matn yaratuvchi rolini bajarishini, matn yaratishda bir qancha vazifalarni bajarishi, turli ijtimoiy maqomlarga ega bo'lishini qayd etadi [3;40].

Tadqiqot metodologiyasi. Lisoniy shaxsning voqelanishida turli ijtimoiy omillar, xususan, gender [5], yosh [7], muallifning temperamenti ham muhim ahamiyatga ega. Temperament lisoniy shaxs voqelanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillardan biri sanalib, uni tadqiq qilish tilshunoslik oldida turgan dolzarb masalalardandir.

Natijalar. Muallif lisoniy shaxsiga baho berishda quyidagi sintaktik vositalarga e'tibor qaratish zarur.

1. Qisqa jumlar, asosan kesim va kesim tarkibli gaplar. Nutqqa keskinlik berish maqsadida qo'llaniladigan bunday gaplar yozuvchi B.Qobul lisoniy shaxsiga xos. Ma'lumki, o'zbek tilida gapning asosiy gap bo'lagi sifatida kesim olinadi, birgina kesimning o'zi gapni shakllantirishi, hukm ifodalashi mumkin. Faqat kesim yoki kesimga bevosita bog'lanadigan gap bo'laklaridan tarkib topgan sodda gaplarda ketma-ket, tezlikda yuz bergan voqeani ifodalashda foydalanilganligini kuzatish mumkin. *Lap etib yondi. Bu yonish, g'ayrat, lovullash, alanga, o't-u nafas tanish ko'rindi. Birda bir boshidan o'tgandek ko'rindi. Kashmiri o'xshab-o'xshab ketdi. Ko'ngli xijil tortdi. G'ashlandi. o'ziga o'zi g'ashiqdi. Keyin qon qaynadi. Qon tortdi* (B.Qobul).

2. Sintaktik takror. Tilshunoslik ilmida o'z uslubiga ega, boshqa yozuvchilardan individual so'z qo'llash mahoratiga ega yozuvchilar qadrlanadi. Muallif lisoniy shaxsining o'ziga xosligini ifodalovchi sintaktik qurilmalardan yana biri sintaktik jihatdan bir xil shakllangan gaplardir. Tilshunoslikda bunday qurilmalar parallelizm atamasi ostida o'rganiladi. Parallelizm (yun. *parallelos-yonma-yon boruvchi*) yonma-yon gaplar,

sintagmalarning bir xil sintaktik qurilishga ega bo'lishi. Parallel birliklarning asosiy vazifasi fikrga izoh berish va eng muhimi, unga tinglovchini to'la ishonтира olishdan iborat. Ular til uslubiy vositalarining boyishi manbalaridan biri bo'lib, poetik nutqda ko'p qo'llanadigan, eng mahsuldor va ta'sirchan sintaktik birlik hisoblanadi. Bir xil shakllangan gaplar badiiy nutq ta'sirchanligini boyitish bilan birga ma'noni kuchaytirishga va fikrning batafsil – atroflicha ifodalanishiga, tasvir obyekti bilan bog'liq ma'lumotlar fondining kengayib borishiga xizmat qiladi [2;76]. Sintaktik takror asosan xalq og'zaki ijodi namunalariga xos ifoda uslubi bo'lib, undan T.Murod, B.Qobul, Sh.Bo'tayev unumli foydalangan.

Otahovli suhbatlari shoshiradi.

Otahayot xotiralari shoshiradi (B.Qobul).

Til o'lik – el o'lik, til tirik – el tirik emish, til o'lamsa – el o'lamsa (B.Qobul).

Odam zamonidan oxir zamongacha hech kim o'lmaydiganday...

...hech kim, hech narsa hech qayoqqa yo'q bo'lib ketmaydiganday...

Hech bir narsa yangilig-u hech bir narsa eskilik emasday gapiradilar (B.Qobul).

Keltirilgan misolda *hech kim o'lmaydiganday, yo'q bo'lib ketmaydiganday, hech bir narsa eskilik emasday* gaplari sintaktik takroni hosil qilgan.

Bir xil shakllangan gaplar Sh.Bo'tayev lisoniy shaxsiga ham xos xususiyat hisoblanadi. *Tog'liklar buloqlardan suv ichishadi. Dashtliklar daryolardan suv ichishadi (Sh.Bo'tayev). Beshkapada epchil bo'lgani epchil bo'lipti. Beshkapada yalqov bo'lgani yalqov bo'lipti. Qadimda qanday bo'lsa, shunday bo'lipti (Sh.Bo'tayev).* Bir xil shakllangan sintaktik gaplarda undosh tovushlar uyg'unligi, bir so'z takrori ta'kid ma'nosini kuchaytirish, adresatning diqqatini tortishga xizmat qilish bilan birga muallif lisoniy shaxsi – qat'iyatli shaxsni shakllantiradi.

Eslagandayam muhabbat bilan eslash zarur ekan.

Eslagandayam ko'zda yosh bilan eslash zarur ekan.

Ko'zyoshlar ko'ngilga yo'lochar ekan.

Ko'zyoshlar ko'ngilga olamni tanitar ekan.

Ko'ngilsiz ko'z ochmaslik kerak ekan.

Ko'ngilsiz nigoh tashlamaslik kerak ekan.

Ko'ngilsiz lab juftlamaslik kerak ekan.

Ko'ngilsiz qadam tashlamaslik kerak ekan.

Ko'ngilsiz kaft yozmaslik kerak ekan (Sh.Bo'tayev). Keltirilgan matnda “k” undoshi bilan boshlanadigan so'zlar hamda *ko'ngilsiz so'zi o'ziga xos nutq* hosil qilgan.

Bunday tarzda shakllangan gaplar muallifning olam va odam haqidagi tasavvurlarini, voqelikka munosabatini ifodalashda ham qo'l keladi. *Tasavvuf – sabr qilish. Tasavvuf – yuksak axloq. Tasavvuf – o'zni taqdiri ilohiyga topshirish, qazoyi qadarga rozi bo'lish. Tasavvuf muhabbat haqidagi ilohiy ilm. Tasavvuf, yana Haqni, uning Zotini tafakkur qilish (U.Hamdani). Bobolar-u momolar qaro tufroq tafti*

tovonlariga urib turganidan suyuna-suyuna o'taverishar ekan. Bobolar-u momolar quyg'och-qiyg'och gulga kirgan daraxtlarday o'taverishar ekan. Bobolar-u momolar duvva-duvva meva tukkan daraxtlarday o'taverishar ekan. Bobolar-u momolar guras-guras xazon to'kkan daraxtlarday o'taverishar ekan, o'taverishar ekan (Sh.Bo'tayev). U.Hamdani asaridan olingan matn parchasida ziyoli muallif-hikoyachi, Sh.Bo'tayev asaridan olingan parchada esa ertakchi-muallif lisoniy shaxsi voqelanishida sintaktik jihatdan bir xil shakllangan gaplar muhim ahamiyat kasb etgan.

3. Inversiya. Asosan she'riy asarlarda qo'llaniladigan bu sintaktik vosita nasriy asarlarda ham muallif lisoniy shaxsini o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishida xizmat qiladi. Inversiya muallif nutqida qo'llanilganda asar tilini jonli xalq tiliga yaqinlashtirish, voqelikka munosabat ifodalashda qo'l keladi. *A, ayting, osongina tark etsih mumkinmi shunday joyni? Shunday qilib, yigitcha o'qishdan "dumaladi", yozuvchi bo'lish yo'lidagi ilk saboqni oldi hayotdan. Axir yosh edi, bor-yo'gi o'n sakkizga to'lib-to'lmagan bo'z yigit edi bizning o'lmas. 1992 yil edi o'shanda* (U.Hamdani). *Poda-poda qoramollar, suruv-suruv qo'y-qo'zilar, uyur-uyur yilqilar o'taverar ekan ana shu podajoydan* (Sh.Bo'tayev)

Nutqning sintaktik qurilishi tadqiq qilish sotsiolingvistika, psixolingvistika, pragmatolingvistika kabi sohalarida lisoniy shaxsning baho munosabatini hamda o'ziga xos nutq qurish modelini aniqlashda muhim ko'rsatkich sanaladi. Muayyan sintaktik birliklarning lisoniy shaxsni belgilashdagi o'rni masalasi uch asosiy tamoyilga ko'ra belgilanadi: ishlatilish chastotasi, funksional-kommunikativ shartliligi, semantik-pragmatik valentligi [4; 9]. Biroq shuni ham ta'kidlash kerakki, tilning sintaktik sathi boshqa til sathlariga qaraganda kam o'zgarishga uchraydi. Tildan foydalanuvchilar yillar davomida shakllantirgan sintaktik qoliplarni buzish, yangisini yaratish yoki sintaktik qoliplarga o'zgartirish kiritishi mumkin emas. Yozuvchilarning nutqida sintaktik birliklarning namoyon bo'lishi, muayyan gap qoliplaridan foydalanishi aksar hollarda ijtimoiy omillar, xususan, ularning hududiy mansubligi bilan ham bog'liq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, sintaktik sath birliklarini muallif lisoniy shaxsini aniqlashdagi o'rni masalasini yoritish muayyan davr tildan foydalanuvchilari nutqi haqida tasavvur hosil qilishga, tilning sintaktik qurilishiga ijtimoiy omillarning ta'siri masalasini o'rganishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ишегулова А. М. Языковая личность писателя Яныбая Хамматова (на материале художественных текстов). Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Уфа. 2016. – 23с.
2. Йўлдошев М., Ядгаров Қ. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. – Тошкент, 2007.
3. Yo'ldosheva X. Badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqi. Filol. fan. d-ri (DSc) diss. – Qarshi. 2023. – 227 b
4. Шаталова О.В. Синтаксическая характеристика языковой личности. Автореф. дисс. д-ра филол. наук. – Елец, 2012. – 51 с.
5. Umurzaqova M. Lisoniy shaxsni belgilashning gender omili. <https://uzlc.tsuull.uz/index.php/uzlangcult/article/view/124>